

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 12-noyabr, № 232 (8855) Ceshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON TINCHLIK VA DIPLOMATIYA TARAFDORI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ikki muqaddas masjid xodimi – Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saudning taklifiga binoan 11-noyabr kuni amaliy tashrif bilan Ar-Riyod shahrida bo‘ldi.



Podshoh Xolid nomidagi xalqaro aeroportda davlatimiz rahbarini Ar-Riyod viloyati rahbariyati – shahzoda Muhammad bin Abdurahmon bin Abdulaziz va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev navbatdan tashqari arab-islom sammitida nutq so‘zladi.

Saudiya Arabistoni raisligida o‘tgan tadbirda Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo, Afrika qit’asining yetakchi mamlakatlarining davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq, xalqaro hamjamiyatning G‘azo va Livandagi keskinlikni kamaytirish, yuzaga kelayotgan vaziyatni tez fursatda siyosiy yo‘l bilan hal etishga qaratilgan sa’y-harakatlarini birlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari global siyosat kun tartibidagi eng o‘tkir va og‘riqli masala – Falastin muammosiga bag‘ishlangan sammitni tashkil etgani uchun Ikki muqaddas masjid xodimi, Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud hamda Valiahd Muhammad bin Salmon Ol Saudga alohida minnatdorlik bildirdi.

2023-yili Ar-Riyod shahridagi yig‘ilishdan keyin o‘tgan vaqt mobaynida ushbu urush ko‘lami yanada kengayib, Livan hududini ham qamrab olgani afsus bilan qayd etildi.

Prezidentimiz Falastin – Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yo‘li bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatladi.

Mazkur sammitda global va mintaqa darajasida samarali mexanizmlar va aniq yechimlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etilishiga ishonch bildirildi.

Harbiy harakatlarni zudlik bilan to‘xtatish, xavfsiz gumanitar yo‘laklarni ta’minlash va tinchlik muzokaralarini boshlash masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xavfsizlik Kengashining doimiy e’tibor markazida turishi zarurligi qayd etildi.

Qadimiy va boy tarixga ega falastin xalqi 1967-yildagi chegaralar doirasida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil va ozod davlatini tuzishga to‘la haqli ekani ta’kidlandi.

Shu ma’noda, Saudiya Arabistoni tashabbusi bilan tashkil etilgan Ikki davlat yechimi uchun global alyans faoliyati qo‘llab-quvvatlandi.

Bundan tashqari, Falastin va Livan hududidagi gumanitar inqirozning oldini olish maqsadida yetakchi davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Maxsus agentligi doirasida yordam ko‘lamini kengaytirish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari urushda jabrlangan falastinlik bolalar va ayollarni O‘zbekiston shifoxonalarida beg‘araz davolashga tayyor ekanini ta’kidladi.

Falastin xalqiga amaliy yordam ko‘rsatish masalalarini kelgusi yili Samarqandda o‘tadigan “Ko‘rfaz arab davlatlari – Markaziy Osiyo” sammitida ham muhokama qilish niyati bildirildi.

Prezidentimiz muqaddas Al-Aqso masjidi, Quddusdagi boshqa noyob tarixiy-madaniy yodgorliklarning daxlsizligini ta’minlash hamda ularni beshikast saqlab qolish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari mazkur uchrashuv Yaqin Sharq muammosini hal etishda katta qadam bo‘lishiga umid bildirdi.

Muhokamalardan so‘ng tomonlar mojaroning siyosiy-diplomatik yechimini jadal izlashga sodiqligini tasdiqlovchi qo‘shma rezolyutsiya qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohligi Valiahdi, Bosh vaziri Muhammad bin Salmon Ol Saud bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston – Saudiya ko‘p qirrali munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Ar-Riyoddagi favqulodda sammit o‘z vaqtida tashkil etilgani va dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

Turli darajalardagi faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo va investitsiyalar hajmi, qo‘shma korxonalar soni oshib bormoqda.

“Yashil” energetika, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kommunikatsiyalar sohasida, qishloq xo‘jaligi, sanoatda yangi qo‘shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

Bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlarga, shu jumladan, 2025-yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan “Ko‘rfaz arab davlatlari – Markaziy Osiyo” ikkinchi sammitiga tayyorgarlik ko‘rishga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv davomida O‘zbekiston yetakchisi fuqarolarimizning Haj va Umra ziyoratlarini ado etishlariga yaratilgan sharoitlar uchun Saudiya Arabistoni rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi.

Mintaqaviy masalalar, jumladan, Yaqin Sharqdagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etish yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu kuni davlatimiz rahbari Saudiya Arabistoni energetika vaziri shahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saudni qabul qildi.

Qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish va “yashil” energetika sohasida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston energetika sohasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishda faol ishtirok etayotgan yetakchi “ACWA Power” kompaniyasi bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidladi.

Mamlakatimiz hududlarida shamol va quyosh elektr stansiyalarini qurish, shuningdek, “yashil” vodorod ishlab chiqarish loyihalarini tezlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda mahalliylashtirish va korxonalar energiya samaradorligini oshirish jarayonlariga Saudiya Arabistoni kompaniyalari va maslahatchilarini jalb etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni investitsiyalar vaziri Xolid al-Falihni qabul qildi.

Oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi doirasida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, eng avvalo, O‘zbekistonda ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik jadal rivojlanayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi, kooperatsiya ko‘lami va aviaqatnovlar soni ortib bormoqda. Joriy yil yakuni bilan yurtimizga Saudiya Arabistoni kompaniyalarining qariyb 2,5 milliard dollarlik investitsiyalari jalb etilishi kutilmoqda.

O‘zaro manfaatli sohalarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi. Shu munosabat bilan Toshkent shahrida o‘tkaziladigan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishiga puxta tayyorgarlik ko‘rish zarurligi qayd etildi.

Shu bilan Ar-Riyodga amaliy tashrif doirasidagi tadbirlar yakunlandi.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Boku shahriga keldi.

Haydar Aliyev nomidagi xalqaro aeroportda davlatimiz rahbarini Ozarbayjon iqtisodiyot vaziri Mikoyil Jabborov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturida O‘zbekiston yetakchisining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP – 29) tadbirlarida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan bir qator uchrashuvlar o‘tkazadi.

“COP – 29” doirasida delegatsiyamiz tomonidan yerlarning tanazzulga uchrashi va cho‘llanishga qarshi kurashish, ekologik ta’limni rivojlantirish hamda iqlim kun tartibini ilgari surishda yoshlarning o‘rniga bag‘ishlangan yuqori darajadagi tadbirlar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasining maxsus tashkil etilgan Milliy pavilyonida Orolbo‘yi mintaqasining ijtimoiy-ekologik muammolarini hal etish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya va suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bioxilmaxillikni asrash va boshqa yo‘nalishlarda 20 dan ortiq qo‘shimcha tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING ARAB-ISLOM SAMMITIDAGI NUTQI

Bismillahir Rahmonir Rahim!

Hurmatli rais janoblari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Global siyosat kun tartibidagi eng o‘tkir va og‘riqli masala – Falastin muammosiga bag‘ishlangan bugungi muhim sammitimizni tashkil etganlari uchun Ikki muqaddas masjid xodimi, Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud A’lo Hazratlariga hamda Valiahd va Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saud Hazrati Oliylariga alohida minnatdorlik bildiraman.

Ming afsuski, 2023-yili Ar-Riyod shahridagi tarixiy yig‘ilishdan keyin o‘tgan vaqt mobaynida ushbu adolatsiz va qonli urush ko‘lami yanada kengaydi.

Dunyo hamjamiyatining qat’iy harakat va chaqiriqlariga qaramasdan, xalqaro me’yorlar va rezolyutsiyalarning qo‘pol ravishda buzilishi davom etmoqda. Urush olovi endilikda Livan hududini ham qamrab olgani barchamizni qattiq larzaga solmoqda.

Hamkasblarim o‘z nutqlarida aytib o‘tganlaridek, ming-minglab begunoh bolalar, ayollar va keksalar o‘limiga sabab bo‘layotgan bu vayronkor va mudhish hujumlar insoniyat yangi tarixining eng qora sahifasiga aylanmoqda.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlari, maktab va shifoxonalar, masjidlar, butun boshli shaharlar yo‘q qilib tashlanayotgani, millionlab tinch aholi boshpanasiz qolib, ocharchilik va kasalliklarga mahkum bo‘layotganini iztirobsiz kuzatish mumkin emas.

Eng yomoni, hammamiz guvoh bo‘layotganimizdek, ushbu fojiaga nisbatan xalqaro maydonda ikki xil standartlar asosida yondashilmoqda. Bu esa urushning keng yoyilib ketish ehtimolini keskin oshirmoqda, xalqaro xavfsizlikka jiddiy raxna solmoqda.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

O‘zbekiston Falastin – Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yo‘li bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu borada bugungi sammitimizda umumiy siyosiy iroda va birdamlikni namoyon etib, global va mintaqa darajasida samarali mexanizmlar va aniq yechimlar ishlab chiqib, hayotga tezroq joriy etilishiga ishonamiz.

Gap, **eng avvalo**, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xavfsizlik Kengashining mazkur ko‘p yillik nizoni hal etishdagi o‘rni va ta’sirini tubdan oshirish haqida bormoqda.

Harbiy harakatlarni zudlik bilan to‘xtatish, xavfsiz gumanitar yo‘laklarni ta’minlash va eng asosiysi – tinchlik muzokaralarini boshlash masalalari bu universal xalqaro tuzilmaning doimiy e’tibor markazida turishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, 15-noyabr kuni jafokash Falastin xalqi o‘z milliy bayrami – Falastin Davlati e’lon qilingan kunni nishonlaydi.

Aminmanki, bu qadimiy va boy tarixga ega xalq 1967-yildagi chegaralar doirasida, poytaxti Sharqiy Quddus bo‘lgan mustaqil va ozod davlatini tuzishga to‘la haqlidir. Bu borada biz Saudiya Arabistoni tashabbusi bilan tashkil etilgan Ikki davlat yechimi uchun global alyans faoliyatini har tomonlama ma’qullaymiz.

Uchinchidan, Falastin va Livan hududidagi mislsiz gumanitar inqirozning oldini olish maqsadida davlatlarimiz tomonidan hamda yetakchi xalqaro tashkilotlar doirasida yordam ko‘lamini kengaytirishimiz lozim.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining katta tajribaga ega bo‘lgan Maxsus agentligi va boshqa institutlari faoliyatiga zaruriy ko‘makni oshirish tarafdorimiz.

Shu o‘rinda biz urushda jabrlangan falastinlik bolalar va ayollarni O‘zbekiston shifoxonalarida beg‘araz davolashga tayyorligimizni bildiramiz.

Biz Falastin xalqiga amaliy yordam ko‘rsatish masalalarini kelgusi yili Samarqandda o‘tadigan “Ko‘rfaz arab davlatlari – Markaziy Osiyo” sammitida ham muhokama qilish niyatidamiz.

To‘rtinchidan, Islom hamkorlik tashkiloti doirasida muqaddas Al-Aqso masjidi, Quddusdagi boshqa noyob tarixiy-madaniy yodgorliklarning daxlsizligini ta’minlash hamda ularni beshikast saqlab qolish masalalariga katta e’tibor qaratishimiz lozim.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Bugungi favqulodda uchrashuvimiz Yaqin Sharq muammosini hal etishda katta qadam bo‘ladi, deb umid qilaman.

Alloh taolodan jahonda tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik ne’matini ziyoda etishini va ummatimiz ahilligini yanada mustahkam qilishini so‘rab qolaman.

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI KASABA UYUSHMALARI

O‘zbekiston kasaba uyushmalari saroyida 11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuniga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va uning hududiy kengashlari, tarmoq kasaba uyushmalari respublika kengashlari, tasarrufdagi tashkilotlar rahbarlari, faxriylar, hamkor vazirlik va idoralar, xalqaro kasaba uyushmalari birlashmalari, xorijiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotlari mutasaddilari ishtirok etdi.

Shukuh

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi bilan boshlangan tantanali bayram tadbirini yosh iste’dodlar ijrosidagi Vatan, tinchlik va xalqlar do‘stligi madh qilingan kompozitsiya davom ettirdi.

Tantanali tadbirda Prezidentimiz tashabbusi bilan inson manfaatlarini ta’minlash yo‘lida o‘tgan 7-8 yil davomida jamiyat hayotining barcha jabhasida birdek olib borilayotgan keng ko‘lamli va tizimli islohotlar hamda yangilanishlar, ularning salmoqli natijalari alohida ta’kidlandi.

Xususan, o‘tgan qisqa vaqt ichida xalqimiz turmush darajasi va farovonligini oshirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash, O‘zbekiston nufuzini dunyo miqyosida yuqori pog‘onaga ko‘tarish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilib, salmoqli natijalarga erishilgani, ushbu yutuqlar jamiyatimiz hayoti va xalqimiz turmushidagi ijobiy o‘zgarishlarda namoyon bo‘layotgani, qisqa aytganda, yangi O‘zbekiston fuqarolari yangicha dunyoqarash ila hayot kechirayotgani qayd etildi.

2

BAG‘RIKENGLIK – HAMJIHATLIK VA TOTUVLIK GAROVI

16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni munosabati bilan yurtimizda “Bag‘rikenglik haftaligi” o‘tkazilmoqda. 11 – 16-noyabr kunlari tashkil etiladigan haftalik dasturidan turli uchrashuv va davra suhbatlari, anjumanlar, qator madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-amaliy tadbirlar o‘rin olgan.

Haftalik

BMT Bosh Assambleyasining qaroriga ko‘ra 1997-yildan buyon nishonlab kelinayotgan Xalqaro bag‘rikenglik kuniga mamlakatimizda ham alohida urg‘u berilayotgani bejiz emas. Bag‘rikenglik – o‘zaro hurmat, bir-birini anglash, tushunish va qabul qilish, demak. Yer yuzidagi turli millatlarga, madaniyatlarga hurmat bilan yondashish o‘zaro hamjihatlik, tinchlik-totuvlik garovi. Ushbu tuyg‘u kishida bilim, samimiyat, vijdon va e’tiqod natijasida yuzaga keladi. Bag‘rikenglik faqat ma’naviy burch bo‘lib qolmay, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Shu bois jahon ahli Xalqaro bag‘rikenglik kunini ko‘tarinki ruhda nishonlash va targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratadi.

2

O‘zbekiston barqaror kelajak yo‘lida:

EKOLOGIK TASHABBUSLAR VA AMALIY HAMKORLIK

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11 – 13-noyabr kunlari Boku shahrida bo‘lib o‘tayotgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi doirasidagi Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish bo‘yicha jahon sammitida ishtirok etadi.

Konferensiyada, shuningdek, 200 ga yaqin mamlakatlardan davlat, hukumat rahbarlari va vazirlar darajasidagi delegatsiyalar, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ekspert, ilmiy va jamoat doiralari vakillari ishtirok etishi kutilmoqda.

Tadbir 1992-yilda qabul qilingan va dunyoning deyarli barcha davlatini qamrab olgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi (COP – 29) ishtirokchilarining 29-konferensiyasi doirasida tashkil etilmoqda. Kioto protokoli va Parij kelishuvi ushbu konvensiya asoslari hamda rivojlanishi bo‘yicha qabul qilingan hujjatlardir.

O‘zbekiston 1993-yil 20-iyunda BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasiga qo‘shilgan, 1999-yilda Kioto protokolini ratifikatsiya qilgan. 2017-yilda Parij bitimini imzolash orqali O‘zbekiston bir qator majburiyatlarni, jumladan, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga “issiqxona gazlari” emissiyasini 2010-yilgi darajadan 35 foizga kamaytirish bo‘yicha asosiy majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi.

BMT hadli konvensiyasining ishtirokchisi sifatida O‘zbekiston iqlim bo‘yicha muntazam hisobotlarni tayyorlaydi va Konvensiya kotibiyatiga taqdim etadi. Shuningdek, milliy ma’ruza, ikki yillik hisobotlar, moslashish rejalari, milliy miqyosda belgilangan badallarni ishlab chiqadi va yangilaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 1-dekabr kuni Dubayda bo‘lib o‘tgan “COP – 28” oliy darajadagi segmentida so‘zlagan nutqida iqlim o‘zgarishi masalalari bo‘yicha mamlakatning pozitsiyasi, dekarbonizatsiya, iqlim o‘zgarishiga moslashish, Orol dengizi ekotizimini saqlash va tiklash yuzasidan hamkorlik bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida ma’lumot berdi.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va Markaziy Osiyo ekotizimlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda. Asosiy vazifalardan biri jiddiy zarar yetgan Orol dengizi ekotizimini tiklashdir. O‘zbekiston BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi trast fondini tashkil qilish tashabbusi bilan chiqdi, uning maqsadi ushbu mintaqani iqlim o‘zgarishiga chidamli hududga aylantirishdir.

O‘zbekiston CO_2 chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini va ekologik ta’limni rivojlantirish maqsadida UNESCO bilan “Yashil ta’lim” dasturi bo‘yicha hamkorlik qilish tarafdori.

“COR – 28” va boshqa uchrashuvlarda mamlakat ekologik muammolarni birgalikda hal etish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha umumiy standartlarni yaratish uchun mintaqadagi mamlakatlarni birlashtirgan “Bir mintaqa – bir ovoz” strategiyasini taqdim etdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga, xususan, “yashil” energiyani rivojlantirish, chiqindilarni kamaytirish va suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish orqali erishish majburiyatini oldi. Uglevodorodlarga qaramlikni kamaytirish uchun quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish loyihalari shular jumlasidandir.

2022-yilda Toshkentda Global yashil rivojlanish instituti (GGGI)ning ofisi ochildi. Bu ushbu tashkilotning MDH va Markaziy Osiyodagi birinchi vakolatxonasidir. “GGGI” mamlakatlarning “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va iqlim tashabbuslari orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga o‘tishini qo‘llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Institutning O‘zbekistondagi faoliyatining asosiy maqsadi iqlim o‘zgarishi sharoitida mintaqaning barqaror rivojlanishi va ekologik tiklanishiga ko‘maklashishga qaratilgan. Muhim dasturlaridan biri Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan moliyalashtirilgan Orolbo‘yi hududlarida “Yashil qoplamalar” barpo etish loyihasi. Ushbu loyiha Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq ekologik inqiroz oqibatlarini yengib o‘tish va Qoraqalpog‘istonda “yashil” texnologiyalar hamda barqaror dehqonchilik usullari orqali aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan.

Iqlim dasturi boshqa xalqaro formatlar doirasida ham faol ravishda ilgari surilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari ShHT doirasida dekarbonizatsiya va “toza” texnologiyalarni joriy etish, “aqlli” qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va suvni tejash masalalarida muvofiqlashtirish va amaliy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidladi.

5-6-noyabr kunlari Bishkekda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida O‘zbekiston yetakchisi iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq dolzarb ekologik muammolarga yechim topish uchun vazirlar darajasida Turkiy ekologik kengash tuzishni tezlashtirishni taklif qildi.

Bu tashabbuslarning barchasi O‘zbekistonning xalqaro ekologik sa’y-harakatlarga o‘z hissasini qo‘shish hamda mintaqa va butun sayyoramiz uchun yanada barqaror kelajakni ta’minlashga sodiqligini aks ettiradi.

O‘zbekiston Prezidentining Bokuda bo‘lib o‘tayotgan tadbirda ishtiroki mamlakatimizning “yashil” o‘sish va rivojlanishga sodiqligini, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha sa’y-harakatlarni birlashtirishga tayyorligini hamda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi, Kioto protokoli va Parij kelishuvi maqsadlariga erishish bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni to‘liq bajarishini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Dunyo” AA.

Biz va jahon

SENAT DELEGATSIYASI XALQARO ANJUMANDA ISHTIROK ETDI

Janubiy Koreyaning Seul shahrida Suv resurslari bo‘yicha Osiyo parlamentlararo maslahat kengashi doirasida “Suv umumiy farovonlik uchun” mavzuida xalqaro davra suhbati bo‘lib o‘tdi.

Unda 15 ta mamlakat, jumladan, Janubiy Koreya, Bruney, Nepal, Kambodja, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Filippin vakillari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati delegatsiyasi ishtirok etdi.

Tadbir davomida ishtirokchilar tomonidan suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri, ekologiya va suv ekotizimlarini muhofaza qilish borasidagi xalqaro hamkorlikning asosiy masalalari atroflicha muhokama etildi.

Shuningdek, O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar haqida ma’lumot berildi. Ayni chog‘da Orol dengizi ekotizimini yaxshilash hamda iqlim o‘zgarishining oldini olish va ekologik barqarorlikni ta’minlash borasidagi dolzarb vazifalarga alohida e’tibor qaratildi.

Davra suhbati yakuni bo‘yicha suv resurslari va iqlim o‘zgarishi sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

“Xalq so‘zi”.



YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI KASABA UYUSHMALARI

1 Haqiqatan ham, yurtimizda inson qadri yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan va tizimli ishlar davlatimiz va jamiyatimizni taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga olib chiqdi. Yangi O‘zbekistonning bu boradagi yutuqlari bugun xalqaro miqyosda ham tan olinib, yuksak e’tirofga sazovor bo‘layotir. O‘zgarishlar va yangilanishlar, aholining turli toifalari, ayniqsa, xotin-qizlar hamda yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan tizimli ishlar natijasida O‘zbekiston aholisining ijtimoiy-siyosiy faolligi, tashabbuskorligi ortib, yangi marralar sari olg‘a intilyapti.

Tadbirda qayd etilganidek, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik uchun yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida mamlakatimiz kasaba uyushmalari faoliyati yangi rivojlanish bosqichiga kirdi.

Bugun xalq tashkilotiga aylangan kasaba uyushmalari ta murojaatni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra jami 62 ming 656 nafar shaxsning huquqlari tiklanib, xodimlar foydasiga qariyb 61,5 mlrd. so‘m mablag‘ undirib berilishiga erishildi. Nodavlat sektordagi xodimlarning ham jamoa shartnomalaridagi imtiyoz va kafolatlardan foydalanishini ta’minlash maqsadida ularni kasaba uyushmalariga jalb etish borasida amalga oshirilgan sa’y-harakatlar natijasida 2024-yilning 9 oyi davomida kichik biznes subyektlari hamda xususiy sektorda faoliyat ko‘rsatayotgan 13 mingga yaqin korxona va tashkilotlarda mehnat qilayotgan qariyb 323 ming nafar xodimlar kasaba uyushma a’zoligiga o‘tkazildi.

Kasaba uyushmalarining xodimlar va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi ishlari ham sifat va miqdor jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan o‘tgan yili Surxondaryo viloyatida zamonaviy



Yunus BO‘RIYEV olgan suratlar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Ish beruvchilar konfederatsiyasi o‘rtasida imzolangan bosh jamoa kelishuvi, amaldagi 102 ta tarmoq kelishuvi hamda 118 mingga yaqin jamoa shartnomalari orqali mehnatkashlar va ular oila a’zolarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyalash bo‘yicha jamoatchilik nazoratini olib borish kabi ishlarni bajarib kelayotir.

Kasaba uyushmalari inspektorlari tomonidan o‘tgan 9 oy davomida 3095 ta tashkilotda jamoatchilik nazorati amalga oshirildi. Kelib tushgan 4020 “Sangardak” sanatoriysi barpo etilib foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, joriy yilda Xorazm viloyatida xalqaro standartlarga mos bo‘lgan 200 o‘rinli “Xonqa” sanatoriysi qurilib mehnatkashlar ixtiyoriga topshirildi. Bu kabi bunyodkorlik ishlari natijasida 2017-yilda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi sanatoriy va dam olish uylarida mavjud 5257 ta o‘rin soni 7000 taga yetkazildi. Va ularda joriy yilning shu buguniga qadar 160 ming nafardan ziyod aholi sog‘lomlashtirildi. 190 ta statsionar turdagi oromgohda esa qariyb 162,5 ming nafar bolalar dam oldi.

Tantanali tadbirda Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz turmush farovonligini yanada oshirish yo‘nalishidagi ishlarda faol ishtirok etayotgan, mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga hamda kasaba uyushmalari faoliyati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan bir guruh yurtdoshlarimiz O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining “Ehtirom” nishoni bilan taqdirlandi. Sovrindorlarga ushbu nishon va pul mukofotlari berildi.

Shuningdek, ko‘p yillik samarali mehnati bilan sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish, shuningdek, kasaba uyushmalarining nufuzini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan yurtdoshlarimiz hamda xalqaro hamkorlarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish maqsadida ta’sis etilgan “O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi laureati” mukofotining joriy yilgi sovrindorlariga ushbu mukofot tantanali ravishda topshirildi.

Bayram tadbiri ishtirokchilarida san’at ustalarining kuy-qo‘shiqlari katta taassurot qoldirdi.

Muhabbat O‘RMONBEKOVA,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.

SAMARQAND DEKLARATSIYASI

BMT Bosh Assambleyasining rasmiy hujjati sifatida tarqatildi

O‘zbekiston mahalla instituti to‘g‘risidagi hujjat BMT Bosh Assambleyasi rasmiy hujjati sifatida ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillarida tarqatildi.

O‘zbekistonning BMTdagi doimiy vakolatxonasi ma’lumotiga ko‘ra hujjat tashkilot jurnalida uning barcha rasmiy tillarida e’lon qilingan hamda a’zo davlatlar va tashkilotning tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida keng tarqatildi.

E’tirof

BMTning rasmiy hujjati 2024-yil 2 – 5-oktabr kunlari bo‘lib o‘tgan “Mahalliy aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni” mavzuidagi xalqaro konferensiyaning Samarqand deklaratsiyasiga asoslanadi.

Unda mahallaning jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta’minlash, yoshlar o‘rtasida insonparvarlik qadriyatlarini targ‘ib etish, avlodlararo muloqotni mustahkamlashga beqiyos hissa qo‘shayotgan noyob institut sifatidagi faoliyati batafsil yoritilgan.

BMT tomonidan e’lon qilingan materialda yangi O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mahallaning jamiyatdagi mavqeini oshirish, uning rolini kuchaytirish va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan izchil hamda tizimli islohotlar, shuningdek, aholi muammolarini hal etishda asosiy va muhim bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlash bo‘yicha vazifalar qayd qilingan.

Xususan, mahalla bugungi kunda jamiyatning barcha jabhasini islohotlarni amalga oshirishga safarbar etuvchi faol va ta’sirchan ijtimoiy tuzilmaga, aholi o‘z fikr-mulohazalarini, takliflarini, muammolarini izhor etish, yechim topish uchun qulay maskanga aylangani alohida ta’kidlanadi.

BMT hujjatiga ko‘ra BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mahallaning rolini sezilarli darajada kuchaytirish zarur. BMT tuzilmalari, jamg‘armalari va dasturlari mahallani Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani amalga oshirish uchun kuchli platforma sifatida qaralishi ta’kidlandi.

“YUNISEF mahallani o‘g‘il-qizlar, jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar sog‘lom ulg‘ayishi, to‘g‘ri ovqatlanishi, toza suv va sanitariya sharoitlari, bezorilik va zo‘ravonliklardan xoli yashashi, toza havodan nafas olishi mumkin bo‘lgan xavfsiz muhit sifatida ko‘radi. BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi mahallalarni fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida e’tirof etib, ularni adolat tamoyillariga asoslangan dasturlar orqali qo‘llab-quvvatlaydi”, deyiladi hujjatda.

Xalqaro tashviqotni kuchaytirish va jahon hamjamiyatini mahallaning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bilan yaqindan tanishtirish va xalqaro o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

“Dunyo” AA.
Nyu-York

BAG‘RIKENGLIK – HAMJIHATLIK VA TOTUVLIK GAROVI



1 Mazkur sana munosabati bilan Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan qator tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan haftalik yangi O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish, barcha millatlarning ravnaqi uchun teng sharoit hamda imkoniyat yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarga g‘oyat uyg‘un va hamohangdir.

Haftalikning asosiy maqsadi aholi, jumladan, yoshlarda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, sha’n va qadr-qimmat, fuqarolik mas’uliyati, shuningdek, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini mustahkamlash orqali ularning jamiyat rivojidagi ishtirokini faollashtirish, millatlararo totuvlik va konfessiyalararo bag‘rikenglik hissini yanada kuchaytirishga hissa qo‘shishdir.

Haftalik poytaxtimizdagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida Mustaqillik monumentiga gulchambar qo‘yish marosimi bilan boshlandi. Unda mas’ul tashkilotlar rahbarlari va xodimlari, milliy madaniy markazlar hamda diniy konfessiyalar, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Mediamarkazida mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, xorijiy davlatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan “O‘zbekiston – bag‘rikeng diyor” mavzuida Xalqaro press-klubning navbatdagi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda xalqimiz qadimiy o‘tmishi davomida shonli voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga fojiali kunlarni ham boshidan kechirgani, har qanday murakkab sharoitda ham millatlararo totuvlik, hamjihatlikni saqlab qolgani bugungi dorilamon kunlarning poydevori bo‘lgani ta’kidlandi.

Haftalik doirasida Toshkent fotosuratlar uyida “O‘zbekiston – bag‘rikeng diyor” nomli fotoko‘rgazma ochiladi. Unda yurtimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik haqida so‘zlovchi 80 ga yaqin fotoasarlar namoyish etilishi belgilangan. O‘zuvchilar uyushmasida “Yangi O‘zbekiston kitob va kutubxonadan boshlanadi” nomli qardosh xalqlar yozuvchi va shoirlari kitoblari ko‘rgazmasi nafaqat sog‘ingan qalblar uchrashuviga, balki katta adabiyot bayramiga aylanishiga ishonamiz.

Dinlararo va millatlararo bag‘rikenglikni ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan mahalliy fuqarolar va xorijlik hamkorlarni “Diniy bag‘rikenglik” ko‘krak nishoni bilan tantanali taqdirlash marosimi, madaniyat va san’at ustalari ishtirokida “Bag‘rikenglik ohanglari” nomli gala-konsert, “Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazish ham rejalashtirilgan.

Butun mamlakatimiz bo‘ylab tashkil etiladigan haftalik davomida umumta’lim maktablarida uyushtiriladigan “Milliy an’ana va udumlar” ko‘rgazmalari, “Bag‘rikenglik mening nazdimda” mavzuida eng yaxshi insholar, “Mening bag‘rikeng dunyom” mavzuida eng yaxshi rasmlar tanlovlari, she’rxonlik kechalarini o‘z ichiga olgan “Bag‘rikenglik” festivali navqiron avlod qalbida ezgu qadriyatlarni yanada mustahkamlaydi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” deb nomlangan turli tadbirlar yoshlarning yurtimizda amalga oshirilayotgan bag‘rikenglik siyosati mohiyatini teran anglashiga imkon yaratadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lardagi xiyobon va sayilgohlarda “O‘zbekiston – bag‘rikeng diyor” shiori ostida madaniy tadbirlar, qardosh xalqlar yozuvchi, shoir va rassomlarining badiiy asarlari ko‘rgazmalari, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda nodavlat telekanallar orqali o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, mehmondo‘st va tinchliksevarligi hamda buyuk ajdodlar merosiga bag‘ishlangan badiiy va hujjatli filmlar namoyishi esa bayram shukuhini yanada oshirishi, shubhasiz.

Ayonki, bugungi kunda insoniyat turli geosiyosiy va mafkuraviy kurashlar, terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar girdobida yashamoqda. Haftalik doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar hozirgi murakkab davrda mamlakatimizning milliy yaxlitligini saqlab qolish va mustahkamlash, jamiyatni ma’naviy-axloqiy jihatdan yanada sog‘lomlashtirish, yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalash, ular qalbida do‘stlik muhiti va ko‘p millatli katta yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini kuchaytirishga hissa qo‘shishi bilan ahamiyatlidir.

Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, barcha yutug‘imiz – u xoh tashqi yoki ichki siyosatda bo‘ladimi, xoh iqtisodiy yoki madaniy-gumanitar sohalarda bo‘ladimi – qo‘lga kiritayotgan muvaffaqiyatlarimiz zamirida jamiyatimizdagi osoyishtalik va totuvlik hal etuvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Dilshod KARIMOV
(“Xalq so‘zi”).

Londonda bo‘lib o‘tgan “Wanderlust Reader Travel Awards – 2024” marosimida O‘zbekiston dunyodagi eng yaxshi yangi sayyohlik yo‘nalishi sifatida tan olindi.

MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATIDA TUB BURILISH

Shu yil 27-oktabr kuni “Mening tanlovim – obod Vatanim!” shiori ostida tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlar yuqori darajadagi uyushqoqlik va saylovchilarning faolligi muhitida o‘tdi. Ayni jarayonda 15 million nafardan ziyod fuqarolarimiz saylov uchastkalariga kelib, o‘zlari munosib deb topgan siyosiy partiya hamda ular tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar uchun ovoz berdi. Saylov kampaniyasida jamiyatimizda katta ijobiy siljishlar bo‘lgani, aholimizning siyosiy qarashlari rivojlangani, saylovchilarning partiya va ular ko‘rsatgan nomzodlarga nisbatan talabchanligi kuchaygani yaqqol ko‘rindi.

Mushohada

Ta’kidlash lozimki, oldingi saylovlardan farqli ravishda mahalliy Kengash deputatligiga saylov ham yangi konstitutsiyaviy-huquqiy muhitda mahalliy vakillik organlari vakolatlari kengaytirilgan sharoitda bo‘lib o‘tdi. Xalqimiz mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish uchun fidoyilik bilan ishlashga bel bog‘lagan mahalliy Kengash deputatlarini saylashdi. Mahalliy Kengashlar saylovi natijalariga ko‘ra ularning tarkibi **59,2 foizga** yangilandi. Quvonarlisi, yangi saylangan deputatlarning **32,6 foizi** xotin-qizlardan iborat.

Yangi talablar asosida ishlash – davr talabi

So‘nggi yillarda xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq, ekologiya va sog‘liqni saqlash organlari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo‘yildi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilganligi **hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta’minlashda** muhim qadam bo‘ldi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2024-yil 2-fevralda “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu mahalliy hokimiyat organlarida ish natijadorligini sezilarli darajada ko‘taradigan tarixiy hujjat bo‘ldi.

Mazkur Farmonda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining aholi muammolarini hal etishdagi roli va mas’uliyatini kuchaytirish, saylovchilar bilan doimiy aloqada ishlashini ta’minlashga qaratilgan bir qator yangiliklar alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Mahalliy vakillik organlariga qo‘shimcha ravishda **33 ta** vakolat berildi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga joriy yil 17-oktabrda kiritilgan o‘zgartirishlar bilan O‘zbekistondagi mahalliy boshqaruv tizimi faoliyatini tamomila yangicha asoslarda amalga oshirishning zarur tashkiliy-huquqiy asoslari belgilab berildi.

O‘zaro bir-birini tiyib turish va manfaatlar muvozanati

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, ijroiya organlarining mahalliy Kengashlar oldidagi hisobdorligi, mas’uliyati va javobgarligini kuchaytirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada hokimning bir vaqtning o‘zida mahalliy Kengashga rais bo‘lishiga doir normaning bekor qilinishi –joylarda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga huquqiy zamin yaratdi.

Ta’kidlash lozimki, **mahalliy Kengash raisi lavozimining joriy etilishi** muhim institutsional o‘zgarish hisoblanadi. Bu yangilik, avvalo, mahalliy Kengashlarning mustaqilligini hamda Kengashlar faoliyatining uzluksizligini ta’minlaydi.

Shuni alohida aytish kerakki, Kengash raisi **deputatlar orasidan** saylanadi. Bu yangilik joylarda vakillik hokimiyatini sezilarli darajada kuchaytiradi va aholi manfaatlarini yanada samarali himoya qilish imkonini beradi. Rais jamoatchilik asosida ishlasa-da, bu uning qaror **qabul qilishdagi mustaqilligini oshiradi.**

Yangi tartib hokimlarning mas’uliyatini ham kuchaytirdi. Endi ular Kengash sessiyasi ko‘rib chiqishi uchun masalalar kiritishi, zarurat bo‘lganda navbatdan tashqari sessiya chaqirish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Ayni chog‘da Kengashning qonunchilikka zid bo‘lgan qarorlarini bekor qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yoki sudga murojaat etish kabi qator yangi vakolatlar berilmoqda.

Shu bilan birga, yangi qonunchilik talablariga ko‘ra viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari lavozimlariga nomzodlar xalq deputatlari Kengashlarida o‘z nomzodi ko‘rib chiqilayotganda hududni **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturi**ni taqdim etishi hokimlarning saylovchilar va deputatlar oldidagi mas’uliyatini oshiradi.

O‘z navbatida, hududni rivojlantirish dasturining xalq vakillari tomonidan muhokama qilinishi aholi ehtiyojlarining to‘liq inobatga olinishiga hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarning hal etilishida fuqarolar ishtirokining kengayishiga xizmat qiladi.

Umuman, shu islohotlar natijasida mahalliy Kengashlar chinakam xalq manfaatlarini ifoda etuvchi vakillik organlariga aylanib bormoqda. Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning uzviy davomi va mantiqiy natijasidir.

Nazorat va hisobdorlik

Mahalliy Kengashlarning **nazorat funksiyalari** sezilarli darajada kengaytirildi. **10 ta** asosiy yo‘nalishga birlashtirilgan davlat organlari hisobotlari (axborotlari)ni eshitish bo‘yicha xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining alohida vakolatlari va funksiyalari tizimlashtirildi.

Xususan, hokimlar va ular o‘rinbosarlarining dasturlari ijrosi, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligi masalalari, kreditlar ajratish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning boshqa muhim jihatlari bo‘yicha hisobotlarini eshitish nazarda tutilgan.

Kengashlarga deputatlar orasidan maxsus komissiyalar tuzish orqali tekshiruvlarni o‘tkazish vakolati berilgan. Ushbu komissiyalar davlat organlari va tashkilotlardan zarur hujjatlar va materiallarni so‘rab olish, tushuntirishlar berish uchun mansabdor shaxslarni chaqirish huquqiga ega bo‘lib, tekshirish natijalari esa Kengash sessiyasida ko‘rib chiqish uchun kiritiladi. Bunday nazorat vositalari Kengashlarning mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining shaffofligi va samaradorligini ta’minlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatga olishning **yagona elektron tizimi**ni joriy etish davlat boshqaruvini raqamlashtirish yo‘lidagi yana bir muhim qadamdir. E’tiborlisi, ushbu tizimda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan hujjatlar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bu esa mahalliy davlat hokimiyati organlari ishida qo‘shimcha shaffoflikni ta’minlaydi.

Xalqqa xizmat qilish – ustuvor yo‘nalish

Bu o‘zgarishlarning barchasi **asosiy tamoyil – aholi manfaatlariga xizmat qilish**ga qaratilgan. Mahalliy Kengashlarning rolini kuchaytirish joylarda muammolarni tezroq hal etish, muhim qarorlarni qabul qilishda aholi fikrini inobatga olish imkonini beradi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, boshlangan islohotlar O‘zbekistonda mahalliy boshqaruv tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Joylardagi vakillik va ijro hokimiyati o‘rtasidagi vakolatlar bo‘linishi, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish – bularning barchasi **hududlarni yanada rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish** uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bu o‘zgarishlar inson, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari bosh qadriyat bo‘lgan yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘liga to‘liq mos keladi.

Mahalliy Kengashlar faoliyatiga oid yangi yondashuvlar joriy etilishi O‘zbekistonda mahalliy boshqaruv tizimi tubdan o‘zgarayotganidan dalolat berib, uning sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishini kafolatlaydi.

Akrom TOSHPO‘LATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori, yuridik fanlar doktori.

PSIXOLOGIK YORDAM STANDARTLARI

Psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash, aholi, ayniqsa, yoshlarga sifatli psixologik xizmat ko‘rsatish, amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalalardan sanaladi. Yurtimizda ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida 2,5 ming, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 14 mingga yaqin pedagog-psixologlar faoliyat olib borayotgani ana shu sa’y-harakatlar natijasi, deyish mumkin.

Fikr

“Malakali psixolog” deganda, ko‘z oldimizga o‘z sohasi bo‘yicha tahsil olgan, oliy ma’lumotga ega mutaxassis keladi. Biroq oxirgi paytlarda kuzatadigan bo‘lsak, ikki yoki uch oylik kurslarni tamomlagan ayrim shaxslar ham o‘zini “psixolog” deb tanishtirib, ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlarning qimmatli vaqti va mablag‘ini o‘g‘irlamoqda. Achinarlisi, soddadil odamlar ularning tuzog‘iga tushib qolayotganidir.

Psixologik yordam, ayniqsa, xususiy tarkibda psixologik yordam ko‘rsatish bilan bog‘lik holatlarni huquqiy tartibga solish zaruratini yuzaga keltirdi. Shundan kelib chiqib bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida



“Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 5-noyabr kuni imzolangan mazkur qonun fuqarolarga psixologik yordam ko‘rsatish yo‘nalishidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatli bo‘ldi.

Binobarin, ushbu hujjat bilan aholiga psixologik yordam ko‘rsatishning asosiy prinsiplari, vazifalari, turlari, shakllari hamda standartlari belgilandi. Unga ko‘ra endilikda psixologik yordam ko‘rsatish standartlari Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Shu o‘rinda “Psixologik yordam nima? Qanday hollarda va kimlar tomonidan psixologik yordam ko‘rsatiladi?” degan savollar tug‘ilishi tabiiy.

Qonunda uning izohi alohida belgilandi. Ya’ni psixologik yordam – tang (krizisli) vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, shaxslararo munosabatlarni hamda ruhiy salomatlikni yaxshilash, shaxsiyatni rivojlantirishga yoki insonning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun psixologik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan, tegishli standartlarga muvofiq amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Psixologik yordam davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda ishlovchi psixologlar yoxud ushbu sohada xususiy tartibda faoliyat olib boruvchi yuridik shaxslar, qolaversa, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan bepul yoki pullik asosda ko‘rsatiladi.

Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilarning psixologik salomatligini saqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sog‘lom psixologik muhit yaratish va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish maqsadida psixologik yordam ko‘rsatish tashkil etiladi.

Hujjat bilan shaxs psixologik yordam ko‘rsatish sohasidagi tadqiqotlarga yoki ilmiy tajribalarga faqat ixtiyoriy ravishdagi yoki o‘z qonuniy vakillarining yozma roziligi olinganidan keyin jalb etilishi mumkinligi ham belgilandi. Bu inson huquq va manfaatlarini ta’minlash barobarida, ayrim tushunmovchiliklarga chek qo‘yadi.

Mazkur hujjat aholiga psixologik yordam ko‘rsatish sohasining huquqiy asoslarini yaratish, fuqarolarning psixologik yordam olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, xususiy psixologlar faoliyati qonuniy amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mavluda IBRAGIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

RAQAMLASHTIRISH – SUV RESURSLARINI TEJASHDA HAL QILUVCHI OMIL

Global iqlim o‘zgarishlari hamda aholi soni o‘sishi tufayli dunyoda suv resurslari taqchilligi kuzatilmoqda. Shu bois suv resurslarini samarali boshqarish, ulardan oqilona foydalanish dunyo hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan sanaladi. Shu bilan birga, bu mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi sohani taraqqiy ettirishda asosiy dasturilamal bo‘lmoqda.

Munosabat

Konsepsiyada belgilangan vazifalarga asosan, quyi palataning Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitalari hamkorligida Qashqadaryo, Andijon, Buxoro viloyatlarida o‘tkazilgan sayyor yig‘ilishlarda suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati mazkur hududlar misolida nazorat-tahlil tartibida o‘rganilgandi.

Ma’lum bo‘lishicha, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan tadbirkorlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyozlar qo‘llanilgan. Bunda, avvalambor, hududlarda suvni tejaydigan texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan arizalar berish, ko‘rib chiqish hamda subsidiyalar ajratish ochiqlik va shaffoflik tamoyili asosida raqamlashtirilib, “Agrosubsidiya.uz” platformasi ishga tushirilgan.



Mirziyoyev raisligida qishloq xo‘jaligida suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda sohada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tanqidiy muhokama etildi. Davlat rahbari suv xo‘jaligi sohasida keskin o‘zgarish qilishning birdan-bir yo‘li raqamlashtirish ekanini ta’kidlagani bejiz emas. Bu, o‘z navbatida, ish unumdorligini oshiradi, tejamkorlikni ta’minlaydi.

Kanallarni betonlashtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Bilamizki, kanallar beton qilinsa, suv oqimi tezlashadi. Natijada kichik GESlar barpo etish hisobiga elektr olish uchun katta imkoniyat yaratiladi.

Sug‘orish texnologiyasi joriy qilingan paxta maydonlari uchun 15 mln., yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasi qo‘llanilgan ekinzorlarga 13 mln., diskretli sug‘orish tizimiga o‘tilgan ekin yerlari uchun 5 mln. so‘mgacha subsidiya berilgan. Kredit ajratishda garov ta’minotidan voz kechilib, yangi elektron tizim orqali besh yil muddatga, shundan ikki yillik imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada kreditlar ajratilgan. Bunda pudrat tashkilotlari tomonidan har bir loyiha bo‘yicha kamida ikki yillik kafolat muddati berilishi va besh yil davomida servis xizmatlari ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

Sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida ham konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan muayyan ishlar qilingan. Jumladan, bugungi kun holatiga respublika bo‘yicha 3 mingdan ortiq suv xo‘jaligi obyektlarida “Aqlli suv”, 100 ga yaqin nasos stansiyalarida suvni onlayn nazorat qilish qurilmalari hamda 2 mingga yaqin meliorativ kuzatuv quduqlarida “Dayver” qurilmalari o‘rnatilib, 10 dan ortiq yirik suv xo‘jaligi obyektlarining boshqaruv jarayonlari to‘liq avtomatlashtirilgan. Shuningdek, sohaga doir jami 5 ta, xususan, “melioratsiya”, “smartwater.uz”, “Tomchi YER”, “Nasos stansiyalari” kabi axborot tizimlari va “Tomchi” mobil ilovasi ishlab chiqilgan.

Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev Davlat rahbari tomonidan 2025-yil suv xo‘jaligida “Nasoslar samaradorligini oshirish yili” bo‘lishi e’lon qilindi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab olindi.

Shu o‘rinda hozirgi vaqtda hududlarda Avstraliyaning “Rubicon Water” kompaniyasi texnologiyalari asosida bir qator loyihalar joriy etilganini ta’kidlash joiz. Natijada yuz minglab gektardan ortiq sug‘oriladigan yerlarning suv ta’minoti yaxshilanib, suv resurslarini boshqarish va taqsimlash jarayonlari 30 – 40 foizga yaxshilanishiga erishilgan.

Albatta, raqamlashtirish yo‘nalishida olib borilayotgan bu kabi sa’y-harakatlar mamlakatimizning xalqaro hujjatlar doirasida qabul qilgan majburiyatlarini to‘liq amalga oshirish bilan bir qatorda barqaror taraqqiyotga zamin yaratadi. O‘z navbatida, biz, deputatlar sohaning huquqiy jihatlarini tartibga soluvchi asoslarni takomillashtirish, bu borada zarur qonun loyihalarini ishlab chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Mohira XO‘JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

HAR BIR ISHDA QONUN USTUVOR BO‘LSIN

Keyingi yillarda inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini himoyalash, yurtdoshlarimizni hayotdan rozi qilish, o‘ylantirayotgan muammolarini bartaraf etish, xalq manfaatini har narsadan ustun qo‘yish birlamchi vazifaga aylantirildi. Buning nechog‘li haqiqatga mos ekanligi toshkentlik Nazira Imomova va uning mahalladoshlari duch kelgan muammo nihoyat o‘z yechimini topganligida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Murojaat izidan

Shu yilning yozida tahririyatimizga poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi Abdurahmon Jomiy nomidagi mahallada istiqomat qiluvchi Nazira Imomova va yana 13 kishi tomonidan imzolangan shikoyat kelib tushdi. Unda mahalla hududida amalga oshirilayotgan ko‘p qavatli uy-joy uchun bino qurilishidan aholi aziyat chekayotgani, qurilishni amalga oshirishda qator qonun talablari buzilganidan norozilik bildirilgan. Shuningdek, muallif qurilish boshlanganidan beri yordam so‘rab ko‘plab tashkilot va idoralarga murojaat etgani, biror natija bo‘lmagach, sudga da’vo arizasi kiritishga majbur bo‘lganini aytgan edi.

Ushbu murojaat yuzasidan muxbirimiz mahallaga borib, ariza muallifi va qo‘shnilari bilan uchrashib, suhbatlashdi, qurilish olib borilayotgan joy bilan bog‘liq vaziyatni o‘rgandi. Ayon bo‘ldiki, Usta Shirin ko‘chasining 102 – 104-uylari hududida, yanayam aniqrog‘i, N. Imomova yashaydigan hovlining shundoq yonida ulkan qurilish avj olgan. Kechayu kunduz ishlatilayotgan texnika va transport vositalarining shovqinidan hamda qurilishdan ko‘tarilgan chang to‘zonu daraxtlarning kesib tashlangani tufayli havo sezilarli darajada ifloslanganidan aholining tinchi yo‘qolib, salomatligiga putur yetgan. Yangi qurilgan ko‘p qavatli bino yon-atrofidagi uylarni shabada va oftobdan to‘sib qo‘ygan. Boz ustiga yer osti suvlarining balandligi bois qurilayotgan bino poydevori uchun qazilgan bir necha metrlik chuqur yog‘ingarchilik paytida suvga to‘lib, atrofga toshib ketgan. “Bu joylarda bunday baland bino qurish juda xavfli, u darz ketishi, qulashi va bundan aholi zarar ko‘rishi mumkin”, deyishdi mahalla oqsoqollari xavotirini yashirmay. Eng achinarlisi esa bu ishlarning bari qonunbuzilishga yo‘l qo‘yilgan holatda boshlangan.

– Qurilishga asos bo‘lgan hujjatlar qator kamchilik va qonunbuzilishlar bilan tuzilgan, – dedi Nazira Imomova. – Jumladan, hujjatlar quriladigan bino atrofida joylashgan turarjoy egalari bilan kelishilmagan holda rasmiylashtirilgan, biz, hatto quriladigan obyekt loyihasi bilan tanishtirilmaganmiz, qurilishni amalga oshirish uchun roziligimiz olinmagan, vaholanki, ushbu talablarning barchasi amaldagi qonunchiligimizda ko‘rsatib o‘tilgan. Bu bilan fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab berilgan uy-joy hamda xususiy mulk daxlsizligi huquqlari buzilgan.

Bundan tashqari, obyekt qurilishini rejalashtirishda avtoturargoh va ko‘kalamzor uchun alohida yer maydoni ajratilishi kerakligi hisobga olinmagan, quriladigan binoning atrof-muhitga va qo‘shni binolarga ta’sir darajasi yetarli o‘rganilmagan. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi “Qurilish sohasiga oid yagona ma’muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatilgan yana bir qator talablar inobatga olinmagan. Shularni bayon etgan holda tegishli tashkilot va idoralarga murojaat qildik, lekin natija bo‘lmadi. Shundan so‘ng Toshkent tumanlararo ma’muriy sudiga da’vo arizasi kiritdik, biroq sud uni rad etish haqida qaror qabul qildi. “Lekin bu bizni to‘xtata olmaydi, chunki biz o‘z huquqlarimizni yaxshi bilamiz va ularning himoya qilinishiga erishmaguncha adolat izlashda davom etamiz”, deyishgandi o‘shanda qat’iyat bilan mahalla vakillari.

Ta’kidlash joizki, Nazira Imomovaning tahririyatimizga murojaati asosida joriy yilning 9-iyulida “Narodnoye slovo” gazetasida maqola e’lon qilingandi. Vaziyatni xolisona yoritish, qarshi tarafning da’vo-e’tirozlarini o‘rganish, haqiqatan ham, qonunbuzilish holatlariga yo‘l qo‘yilganmi-yo‘qmi, aniqlash maqsadida tahririyat chop etilgan maqolani tegishli idora va tashkilotlarga yo‘lladi. Murojaatimizga Toshkent shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i K. Praliyev va Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari – shahar bosh arxitektori Sh. Dusmuhamedovdan javob keldi. Afsuski, K. Praliyev o‘z javobida qurilishga oid hujjatlarning qonun talablariga qanchalik mos kelish-kelmasligi haqida to‘xtalmagan. Sh. Dusmuhamedov esa arizachining vaji sud tomonidan ko‘rib chiqilib, tegishli baho berilgani va uning hech qanday huquqlari va erkinliklari buzilmagan, degan xulosaga kelingani tufayli Nazira Imomovaning shikoyat arizasini qanoatlantirish rad etilganligini ko‘rsatib o‘tgandi.

Biroq voqea shu bilan yakun topmadi. Toshkent tumanlararo ma’muriy sudining hal qiluv qaroridan norozi bo‘lib Yunusobod tumani prokuraturasi tomonidan apellyatsiya protesti keltirildi. Unda birinchi instansiya sudining hal etuv qarorini bekor qilish va arizani qanoatlantirish to‘g‘risida yangi qaror chiqarish so‘ralgan edi.

Sudlov hay’ati taraflarning tushuntirish va mutaxassislar fikrini eshitdi, apellyatsiya protestida keltirilgan vajlarni ish hujjatlari bilan birgalikda obdan o‘rgandi va tegishli xulosaga keldi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi 8-moddasida keltirilgan talab, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarning shaharsozlik faoliyati, agar bunday faoliyat chegaradosh yer uchastkalari, reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) hamda boshqa ko‘chmas mulk obyektlari mulkdorlarining, egalarining hamda ulardan foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishiga monelik qilsa, cheklanishi, agar shaharsozlik faoliyati yuridik va jismoniy shaxslar, jamiyat va davlat manfaatlariga zid bo‘lsa, bunday faoliyat tugatilishi kerakligi inobatga olindi.

Kodeksning 9-moddasiga binoan har bir fuqaro qulay hayot faoliyati muhitiga bo‘lgan huquqqa egaligi ta’kidlandi. Shaharsozlik faoliyati sohasidagi qarorlarning muhokamasi va qabul qilinishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar ishtirok etishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlash zarurligi kodeksning 10-moddasida belgilanganligiga e’tibor qaratildi.

Bu va boshqa qator qonuniy me’yorlarga asoslangan holda, Toshkent shahar ma’muriy sudi Nazira Imomovaning arizasini qisman qanoatlantirish haqida qaror qabul qildi. Unga ko‘ra Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2023-yil 14-sentabrdagi tegishli ruxsatnomasi va 2023-yil 5-oktabrdagi xulosasi haqiqiy emas, deb topildi.

Shunday qilib fuqarolarning ko‘plab e’tiroziga sabab bo‘lgan qurilish davomida ayrim qonun talablari bajarilmaganligi ayonlashdi. E’tiborlisi, qonunchiligimizda inson huquqlari, uning qadr-qimmati ustuvorligi bois adolat qaror topdi. Ayni chog‘da yurtdoshlarimizning huquqiy ongi yuksalib, huquqiy madaniyati tobora rivojlanib borayotganligi bilindi. Demak, davlat tomonidan mas’ul etib tayinlangan shaxslar o‘z vazifalariga mas’uliyat bilan qarashi, har bir ishda qonun ustuvorligiga og‘ishmay rioya qilishi talab etiladigan davr keldi.

Gulbahor TANGIROVA
(“Xalq so‘zi”).

Qohirada parrandachilik sohasida O‘zbekiston – Misr biznes forumi hamda “B2B” shaklidagi muzokaralar o‘tkazildi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 12-noyabr

Dil so‘zi

XALQIMIZNING BAXTLI HAYOTI VA KELAJAGIGA DAXLDOR KASB

Mamlakatimizda Tibbiyot xodimlari kuni keng nishonlandi. Sana munosabati bilan joylarda chin ma’noda bayram ruhi hukmron bo‘ldi, dillarda shodlik tuyg‘usi jo‘sh urdi. Ayniqsa, Prezidentimizning soha vakillariga yo‘llagan tabrigi butun xalqimiz, ayniqsa, sharafli kasb sohiblari qalbida katta aks sado berdi.



Marat KADIROV,
U. Xalmuratov nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining jarrohlik bo‘limi shifokori, “Sog‘lom turmush” medali sohibi:

– Shifokorlik – sharafga sazovor, shu bilan birga, inson gardaniga katta mas’uliyat yuklaydigan, mashaqqatli kasb. Shuning uchun ham odamlar dardiga darmon bo‘lib, sog‘lom hayotga qaytishiga sababchi bo‘layotgan oq libosdagi fidoyilarga xalqimiz har doim hurmat-ehtirom bilan qaraydi, e’zozlab, boshiga ko‘taradi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining shifokorlarga mehr-muhabbati juda yuksak. Bu soha vakillariga qulay shart-sharoitlar yaratilayotgani, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgani, Tibbiyot xodimlari kunining ko‘tarinki ruhda bayram qilinayotgani misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu shodiyona munosabati bilan davlatimiz rahbari yo‘llagan tabrik quvonchimizga-quvonch qo‘shdi. Yurtboshimizning tabrikdagi “Tinchlik va sog‘liq bo‘lgan joyda albatta o‘sish va o‘zgarish, baxtli va farovon hayot bo‘ladi.

Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonimiz erishayotgan katta yutuqlarda, inson kapitalini rivojlantirishda jonkuyar tibbiyot xodimlarining munosib hissasini e’tirof etib, ularga har qancha rahmatlar aytsak, arziydi”, degan so‘zlari qalbimizni to‘lqinlantirib yubordi. Shubhasiz, ko‘rsatilayotgan bunday g‘amxo‘rlik, rag‘bat va ehtirom yurtimizda inson qadri, mehnati naqadar ulug‘ ekanining yana bir isbotidir.

Yaqinda davlatimiz rahbarining “Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining 50 yilligi munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan “Sog‘lom turmush” medali bilan taqdirlandim. Bu e’tirof elimizga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish, ularning sog‘ligini asrab-avaylash yo‘lida hamisha hushyor, o‘z ishimda sobit bo‘lishga ruhlantirdi.



E’tibor NURIDDINOVA,
Chilonzor tumani markaziy ko‘p tarmoqli oilaviy poliklinikasi bo‘lim boshlig‘i, shifokor-terapevt:

– Yurtimiz tobora keng imkoniyatlar o‘lkasiga aylanmoqda. Albatta, tibbiyot sohasiga qaratilayotgan e’tibor zamirida xalqimizni, jamiyatning bosh bo‘g‘ini sanalgan oilalarni, kelajagimiz egalarini sog‘lom ko‘rishdek ezgu maqsad mujassam. Bu maqsadga to‘laqonli erishilmoqda, buni oilaviy poliklinikalar faoliyatining naqadar rivojlanayotgani, mavjud shart-sharoitlar yaxshilanayotganida ham ko‘rish mumkin.

Shu soha vakili sifatida muassasamizdan farzandining dardiga davo topib, mamnun chiqib ketayotgan onalarning tabassumi, jajji bolakaylarni salomat ko‘rish men uchun katta baxt. Tabiiyki, navqiron avlod egalari salomatligini muhofaza qilishda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hech bir tibbiyot xodimini loqayd, befarq qoldirmaydi. Chunki bu millionlab onalaru bolalarning baxtli hayoti, kelajagi bilan bog‘liq beqiyos va ulug‘ ish.

Prezidentimizning tibbiyot sohasi va xodimlari haqida hamisha kuyunchaklik bilan gapirishi, soha rivoji uchun barcha yo‘llarni ochib berishga hozirligini ko‘rib, ruhlanib ketamiz, ishimizga yanada mas’uliyatli bo‘lamiz. Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan yo‘llangan tabrikda ham Yurtboshimizning “Tibbiyotni yanada xalqchil sohaga aylantirish, odamlarni ushbu tizimdan rozi qilish masalasi doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Bu boradagi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda muqaddas qasamyodiga sodiq siz, zahmatkash va oliyjanob tibbiyot xodimlari o‘zingizni ayamasdan, boy bilim, mahorat va tajribangizni safarbar etasiz, deb ishonaman”, degan so‘zlari bizga katta rag‘bat beradi. Uni oqlash kerakligini his qilgan tibbiyot xodimi esa bugunning qahramoni degan sharafli nomga loyiq bo‘lishi muqarrar.

Sirasini aytganda, inson sog‘-salomat bo‘lsa, o‘ylagan orzu-maqsadlariga erisha oladi. Zero, jismonan sog‘lom va ma’nan yetuk insongina yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini ta’minlashga qodir. Bizning zimmamizda xalq salomatligiga kamarbasta bo‘lishdek yuksak vazifa turibdi va uni dildan his etib, to‘liq bajarishga harakat qilamiz.

Rahmatjon BOBOJONOV (“Xalq so‘zi”) yozib oldi.

BIR KUNLIK TO‘YNING MING KUNLIK MASHMASHASI



Kuz faslining oxirida qishloq ahli hosilni yig‘ishtirib olib, dala yumushlaridan qo‘li biroz bo‘shagach yurtimizda to‘ylar mavsumi boshlanadi. To‘y – yillar davomida yaxshi niyat, orzu-havas bilan orziqib kutiladigan, qavm-qarindoshlar, yor-do‘stlar jam bo‘lib o‘tkaziladigan tadbir. Elga dasturxon yozib, nikohni, oilada farzand dunyoga kelganligini ma’lum qilish milliy urf-odatlarimiz sirasiga kiradi. Bunday tadbirlar azaldan mahalla faollari, ko‘pni ko‘rgan keksalarimiz boshchiligida ixcham tarzda, isrofgarchilikdan tiyilgan holda o‘tkazilgan. Ana shu taomil asosida fayzli o‘tgan to‘y nihoyatda badastir, go‘zal udumlarimiz, mumtoz ma’naviy qadriyatlarimizning namoyishiga aylangan.

Biroq keyingi paytlarda to‘y bilan bog‘liq an’analarimiz qatoriga millatimizga xos bo‘lmagan ma’nisiz rasm-rusumlar qo‘shildiki, ular ko‘plab oilalarning iqtisodiy jihatdan mushkul ahvolga tushib qolishiga, fuqarolarning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

– Koronavirus pandemiyasi davrida joriy qilingan cheklovlar tufayli to‘ylarni ancha ixcham, kamchiqim qilib o‘tkazish urfga kira boshlagan edi, – deydi urganchlik mehnat faxriysi Bekposhsha Xo‘jayeva. – Nazarimizda to‘ylarda xonandalar tomonidan ko‘rsatiladigan madaniy xizmat bilan bog‘liq ortiqcha chiqimlarni ham o‘ylab ko‘rish fursati yetdi. Bir “qo‘li uzun” o‘ylab topgan “birrov” degan odat bois qanchadan-qancha kamxarj oilalar aziyat chekayotgani ham bor gap. Boz ustiga to‘yxonada xonandalarning navbat talashib janjallashib, bir-birini beobro‘ qilishini aytmaysizmi?!



Taassuf

Asta-sekin to‘ylarga taklif etiladigan mehmonlar soni yana 500 – 1000 kishiga yetdi. Mehmondo‘stlik yaxshi fazilat, biroq uni dabdababozlik, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish kabi illatlar bilan chalkashtirmaslik kerak. Hozir agar xonadon sohibi to‘yga yuz nafar mehmon taklif etsa, og‘ziga kuchi yetmaganlar tomonidan muhokama mavzusiga aylanadi. Holbuki, shu to‘yga sarflanayotgan pulni kelin-kuyov uchun zarur jihozlarni xarid qilishga, ularning ta’lim olishi, kasbiy kamoloti yo‘lida xarjlasa, ming karra foydali bo‘lardi!

– To‘y faqat yeb-ichib, qorin to‘ydirib ketadigan tadbir emas, balki ma’naviy-ruhiy tomondan tarbiyalovchi vositadir, – deydi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyati bo‘limi rahbari Behzod Abdrimov. – Chunki unda ijro etiladigan milliy kuy-qo‘shiqlar, she’rxonliklar to‘yni chinakam ma’naviyat bayramiga aylantirgan. Shu nuqtayi nazardan, xonandalarimiz to‘y davrasida ijro etiladigan qo‘shiqlar repertuarini mushohada qilib ko‘rsalar, quloqni qomatga keltiradigan shovqin-suronlarni kamaytirib, milliy qo‘shiqlarga keng o‘rin berilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Nikoh to‘ylaridagi yana bir muammoli jihat to‘y kortejlari bilan bog‘liq. Mahalla-ko‘y, jamoatchilikning e’tiborsizligi tufayli to‘ylarda bir xil rangdagi o‘nlab qimmatbaho avtomobillarni yollash urfga kirdi. Avtomobillarning guruh bo‘lib harakatlanish jarayonida yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik tufayli baxtsiz hodisalar ro‘y berayotgani, to‘y azaga aylanayotgan holatlar biz uchun saboq bo‘lishi kerak.

– Ta’kidlash joizki, nikoh to‘ylaridagi dabdaba asta-sekin beshik to‘ylariga ham ko‘chdi, – deydi bog‘otlik mehnat faxriysi Barchinoy Masharipova. – Yaqinda o‘ziga to‘q xonadonlarning birida nevara farzand dunyoga kelishi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda ishtirok etdim. Hovliga quda tarafdan yuborilgan, chiroyli bezatilgan yuk mashinasi dabdaba bilan kirib keldi. Unda yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun mebel, aravacha, belanchakdan tortib tilla taqinchoqlargacha, xilma-xil kiyim-kechaklar, o‘yinchoqlargacha bor edi. Ho‘p, imkoniyati borlar nevarasiga bunday qimmatbaho sovg‘alar berishning uddasidan chiqar, ammo bunday dabdabani ko‘rgan o‘rtahol xonadon egalari nima qilsin? Har narsaning, hatto orzu-havasning ham chegarasi bo‘lgani ma’qul emasmi? Boshqalarni, qo‘ni-qo‘shnilarni hurmat qilgan odam dabdababozlikdan o‘zini tiyishi joiz.

Bundan bir asr muqaddam jadid bobolarimiz to‘y-marosimlarni tartibga solish uchun qattiq kurashgan. Biroq oradan shuncha yillar o‘tsa-da, bunday bema’ni rasm-rusumlar batamom yo‘q bo‘lib ketmadi, bil’aks yangilari paydo bo‘lgani achinarlidir.

Xulosa shuki, xalqimizning turmush tarzi yaxshilanib borar ekan, to‘qlikka sho‘xlik qabilida bunday bema’ni rasm-rusumlar ildiz otishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Milliy taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lib kelayotgan illatlarga barham berishga Vatanini sevadigan, millat, oila kelajagini o‘ylaydigan har bir fuqaro befarq bo‘lmasligi kerak.

Odilbek ODAMBOYEV (“Xalq so‘zi”).

Reklama



Energetika

BU YERDA QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYASI QURILADI



YTTB va YIning Yevropa barqaror taraqqiyot jamg‘armasi Fransiyaning “Voltalia” kompaniyasi tomonidan Xorazm viloyatida 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasini qurish uchun asos solingan “Sarimay Solar” kompaniyasiga 54,6 mln. dollar mablag‘ ajratdi.

Bu haqda Energetika vazirligi rasmiy telegram kanalida ma’lum qilindi.

Unga ko‘ra YTTBning 54,6 million dollarlik moliyalashtirish paketining 44,8 million dollari kredit, shuningdek, qurilish bosqichida “Sarimay Solar” kompaniyasini qo‘llab-quvvatlaydigan 9 million yevrolik maxsus moliyalashtirish dasturidan iborat bo‘ladi.

Loyiha YIning Yevropa barqaror taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan ajratilgan 7 million dollarlik kreditning birinchi transhini qoplash kafolatini oladi. Bu mablag‘lar YTTB faoliyat yuritayotgan YIdan tashqaridagi mamlakatlarda iqlim o‘zgarishini yumshatish texnologiyalarini joriy qilishni tezlashtirishga mo‘ljallangan.

Moliyalashtirish “Sarimay Solar” kompaniyasiga 100 MVt quvvatga ega yangi quyosh fotoelektr stansiyasini qurish va foydalanishga topshirishga yordam beradi, o‘z navbatida, bu O‘zbekistonning 2030-yilgacha 25 gigavattgacha quyosh hamda shamol energiyasini ishlab chiqarish maqsadiga hissa qo‘shadi.

Ma’lumot uchun, bu “Voltalia” kompaniyasining O‘zbekistonda tanlov asosida g‘olib bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha birinchi loyihasi hisoblanadi. Stansiya ishga tushirilgach u yiliga 220 mln. kVt/soatgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishi kutilmoqda.

IKKI MAHALLANI BOG‘LOVCHI YO‘L

Birdamlik bilan qilingan barcha sa’y-harakat, albatta, o‘z mevasini beradi. “Tashabbusli byudjet”ning 2024-yil birinchi mavsumi doirasida Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Qulaylik



Jumladan, yaqinda ushbu hududdagi Boyqo‘rg‘on mahallasi Boyqo‘rg‘on qishlog‘idan Nurli kelajak mahallasi Galabuloq qishlog‘igacha bo‘lgan yo‘lning 2,5 km. qismiga asfalt yotqizildi. Ayni shu taklif 4704 ta ovoz bilan g‘olib, deb topilgan edi.

Bugun mazkur loyiha doirasida asfaltlash ishlari o‘z nihoyasiga yetdi hamda yangi, ravon yo‘l aholining uzog‘ini yaqin qila boshladi.

“Xalq so‘zi”.

Nukusda o‘tkazilgan “Yashil kelajak” umumrespublika marafoni doirasida “Ziyolilar bog‘i” barpo etildi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.00 Topshirildi — 00.40 123456